



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
1-BTS-22 GURUH TALABASI
1-SINF O‘QISH FANIDAN 1 SOATLIK
INTEGRATSİYALASHGAN

DARS

ISHLANMASI

Mavzu: Bahor kelgach (T. Adashboyev).

Sana: 6.11.2024

1. Darsning maqsadi:

Darsning texnologik xaritasi

O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	<p>Metod:suhbat, tushuntirish,”Savol-javob” metodi,”Rasmi boshqotirma”, “Eng vijdonli o’quvchi” o’yinlari.</p> <p>Shakl:jamoa,guruhda ishlash,hamma o’zi uchun.</p> <p>Jihoz:darslik,rangli ko’rgazmalar,harakatli ko’rgazmalar,tarqatma testlar,plakatlar.</p> <p>Nazorat:O’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib,hisobga olib boriladi.</p> <p>Baholash:O’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib,dars oxirida e’lon qilinadi.</p>
Darsning maqsad va vazifalari	O‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarini) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.
Tayanch kompetensiyalar:	<p>K-1:Ko‘rgan lavhalaridan ma’lumotlar yig‘ish; televizor, telefonidan to‘g‘ri foydalanish.</p> <p>K-2:O‘quv fanlarini o‘rganish va bir-biridan farqlash; kun tartibiga amal qilish va badantarbiya bilan shug‘ullanish.</p> <p>K-3:Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:davlat</p>

ramzlarini bilish; sinfda va oilasida o‘z o‘rniga ega bo‘lish; o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlariga va o‘zidan kichiklarga yordam berish.

K-4:Orasta kiyinish; ozodalikka rioya qilish; milliy bayramlarni bilish;

K-5: Maktabga kelib ketadigan vaqtini bilish; kundalik faoliyatida turli chizmalarni chiza olish; tejamkorlikka rioya qilish.

a)ta’limiy maqsad: O’quvchilarga mavzu to’g’risida bilimlar berish.

b)tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash **c)rivojlantiruvchi maqsad:** O`quvchilarning darslik va qo`shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish.

d) shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar: Tk-1, Tk-2, Tk3, Tk-4, Tk-5, Tk-6, Xk-1, Xk-3

II.Darsning turi: Amaliy, nazariy, aralash, noan`aviy, ananaviy.

III.Darsning usuli: . Aqliy hujum, savol-javob, guruhlarda ishlash.

IV.Darsning jihizi: Darslik ,ko’rgazmali qurollar.

V.Didaktik jihoz: Tarqatma materiallar, slaydlar ,bukletlar.

VI.Texnik jihoz: Kadoskop,kampyuter, diaprojektor ekran.

VII.Darsuchun talab etiladigan vaqt: 45 minut:

T/R	Bo’limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Uy ishini tekshirish	4 daqiqa
3	Yangi mavzuni tashkil etishga o’tish	2 daqiqa
4	Yangi mavzuni yoritish	14 daqiqa
5	Yangi bilimlarni tekshirish va mavzuni	10 daqiqa
6	O’rtog’ingni tekshir bellashuvi	10 daqiqa
7	Darsni yakunlash va o’quvchilarni baholash	2 daqiqa
8	Uyga vazifa	1 daqiqa
9	Jami	45 daqiqa

Darsning borishi

Darsning tashkiliy qismi:

- O’quvchilar bilan salomlashish;
- O’quvchilar davomatini aniqlash;
- Sinfni darsga tayyorgarligini tekshirish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy – o’quvchilarga yangi mavzu yuzasidan bilim berish.

Tarbiyaviy – nutq rang-barangligi va go’zalligiga erishishga tarbiyalash

Rivojlantiruvchi – o’zbek tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish

imkoniyatlarini kengaytirish

Dars jihozlari:

Tarqatma material, kompyuter, proyektor, slayd, reklama roligi, sandiqcha, sandiqcha ichida javohirlar, ilmiy tadqiqotlar, qiziqarli masalalar, I, II, III darajali testlar, internet xabarlari

Darsning oltin qoidasi:

HAMJIHATLILIK

O'ZARO FIRK
ALMASHISH

IJODKORLIK

TASHABBUSKORLIK

DO'STONA
MUNOSABATDA BO'LISH

IZLANUVCHANLIK

Baholash mezonlari e`lon qilinadi:

“5” baho-qizil yulduz,



“4” baho-ko‘k to‘rtburchak,

4

“3” baho-sariq uchburchak

3

Har bir shartni birinchi bo`lib bajargan guruhga ham rag`bat-yashil romb berib boriladi

I.Darsning borishi (reja):

1.Tashkiliy qism: a)Salomlashish, b)tozalikni aniqlash,
d)davomatni aniqlash c) darsga tayyorgarlik ko`rish va dars rejasi

O’qituvchi: Hamma quvnoq sog’lommi?
Darsimizga tayyormi?

O’quvchilar: Bizlar quvnoq sog’lommiz
Darsingizga tayyormiz.

O’qish kitobi ochildi.
Ko’z nurlari sochildi.
O’qish kitobi bizni
Yetaklar o’g’il qizni.
Yetaklar bilim sari
Nurli kelajak sari.

O'qituvchi: Bugun oddiy dars emas,
Balki sinov darsidir,
O'tib olsak sinovdan
Bu hammaga yaxshidir.
Qani, ayting, bolalar,
Kim navbatchi bo'ladi
Bugungi kun hisobin
Menga aytib beradi?

Navbatchi: Menman bugun navbatchi
Sinfni tozalovchi
O'quvchilar haqida
Ma'lumotlar beruvchi.
1-“A” sinfmiz
Qiz bolalar—15 ta
O'g'llar ham—15 ta
Barchalari kelishgan
Darsga tayyor bo'lishgan.

O'qituvchi: Ushbu dars yoqar kimga?
Qani aytingchi menga?

O'quvchilar: Sizga, bizga, hammaga,
Yoqar ushbu darsimiz.
Chunki kitob o'qishga
Havas uyg'otgan o'zingiz.

II.O`tgan mavzu yuzasidan savol javob o`tkazish va o`tilgan mavzuni

mustahkamlash: Bolajonlar bu yilgi Navro‘z bayramida kimlar varrak uchurmoqchi?

Keling bugungi darsimizda biz varrakni aplikatsiya usulida yasaymiz. Bunda sizlarga savol beriladi har bir to'g'ri javobga bitta shakli beriladi.

1. Amir Temur bobomiz ona yurtimiz uchun qanday xizmatlar qilgan?
2. Alisher Navoiy aytgan hikmatli so‘zlarni yoddan ayting.
3. “Boburnoma” kitobida nimalar haqida yozilgan ekan?
4. “Ona sabog‘i” hikoyasida bulutlar qanday paydo bo‘lgan ekan?

III . Yangi mavzuning bayoni.

Bolajonlar sinf doskasiga diqqat qilamiz va nimalarni ko’ryabsiz?

- Raqamlar. Barakalla. Shu raqamlarga yashiringan so’zni topamiz.
2, 1,7,14,17. “**Bahor**”

Tursunboy Adashboyev 1939 yil 1 yanvarda Qирғизистон Республикасининг О‘ш viloyati, Olabuqa tumanidagi Safed Bulon qishlog‘ida tug‘ildi. Qishloqdagi 57-o‘rtta maktabni bitirgach, Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida (1961–1966), Moskvadagi M. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida (1978–1982) tahsil oldi.

“Buni toping, bolalar, aytib bermang, onalar” nomli birinchi she’riy to‘plami 1962 yilda chop etildi. Shundan so‘ng shoirning “Kamolning olmasi” (1964), “Biz sayohatchilar” (1966), “Arslonbob sharsharasi” (1969), “Nur daryo” (1975), “Olatog‘ – lolatog“ (1978), “Guldesta” (qirg‘iz tilida, 1979), “Oslik na shesti nogax” (“Olti oyoqli xo‘tikcha” latish tilida, 1983, tarjimon Leons Briyedis), “Quyushqon” (1984), “Arslonbob afsonasi” (1988), “Pesnya javoronka” (rus tilida, tarjimon Yunna Morits), “Uch bo‘taloq va sirli qovoq” (1990), “Top jildiz” (qirg‘iz tilida, 1991), “Topishmoqli alifbe” (1997), “Hushtak chalib turasiz” (A. Obidjon bilan hamkorlikda, 2002), “Oltin yolli tulpor qissasi” (2003), “Orzularim – qo‘sh qanotim” (2003), “Parodiyalar” (kinoya, muqallid, lutf, 2010), “Osmondagi darvoza” (saylanma, 2012), “Qirq yolg‘ondan bir yolg‘on”, “G‘oz karnaychi bo‘lmasin” (2015), “Maxfiy jang” (parodiyalar kitobining to‘ldirilgan nashri, 2016), “Orzularim qo‘sh qanotim”, “Sichqonning orzusi”, “Maqtanchoq chumoli” (2016) kabi she’riy kitoblari dunyoga keldi. Rus, turkman, qirg‘iz, tojik va qozoq tillaridagi adabiy almanaxlarda turkum she’rlari bosildi. Shuningdek, T. Adashboyevning “Jashtik sapar” (qirg‘iz tilida, 1964), “Biz sayohatchilar” (1966), “Guldasta” (1968), “Bizdin belek” (qirg‘iz tilida, 1967), “Ir mayrami” (qirg‘iz tilida, 1967), “Zvonkoye detstvo” (rus tilida, 1981), “Chashmalarin ovozi” (turkman tilida, 1982), “Raduga nad arikom” (belorus tilida, 1986), “Navohoi guldara” (tojik tilida, 1988), “Solni’shko na listyx” (1990), “G‘aroyib qishloqning ajoyib odamlari” (2015) kabi turli yil va turfa tillarda chop etilgan kitoblarini ham sanab o‘tish joiz.



Shoir “O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi” (She’riyat, 1-jild, 1995) va mazkur kitobning rus tilidagi “Pro solnse jarkoye rasskaz, Pro nashu zemlyu i pro nas” (Poeziya, 2007) nashrlariga muharrirlik qildi.

Tursunboy Adashboyev tarjima sohasida ham samarali fqaoliyat yuritib, Temirqul Umetaliyevning “To‘rg‘ay navosi” (1969), Suyunboy Eraliyevning “Tog‘lar farzandiman” (1972), Sovronboy Jusuyevning “Dovon” (1974), “Qanot bilan Zarina” (2004), Musa Jong‘oziyevning “Quvonchbekning quvonchi” (1983), Qanibek Junushevning “Do‘ppili to‘rg‘ay” (1988), Nurmo‘ldaning “Zamona” (1998), Nodirbek Alimbekovning “Bir kam dunyo” (1998), “Gulning umri” (1994), Samuil Marshakning “Tentak ovchi” (2006), Korney Chukovskiyning “Do‘xtir Voyjonim” (2006), “Moydadir – yuvin do‘mbog‘im”, Jovani Rabonining “Mushuk Kotangensning arifmetika daftari” (1977), V. Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota yoki Mafiya sardori” (roman, 2006), S. Arapovaning “Merri inglizchani o‘rganadi” (1996), V. Kulikovning to‘rt kitobdan iborat rasmlari she’riy to‘plamlari (2006) va boshqa asarlarni o‘zbek tiliga o‘girib, chop ettirdi.

Tursunboy Adashboyev she’rlarining qahramonlari quvnoq, topqir, xayolkash, mehnatkash, zavqiyu ishtahasi tobida bo‘lgan aqlli bolalardir.

Kichkintoylarga qisqa va lo‘nda yozish, qissadan hissa chiqarish shoir ijodining muhim fazilatlaridan biridir.


Tursunboy Adashboyev o‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun 2001 yilda “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. U, shuningdek, o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun “Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat arbobi” unvoni va “Manas” ordeni bilan ham mukofotlangan.

Bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev haqida suhbat.

Tursunboy Adashboyev Qirg‘izistonda tavallud topgan. U bolalarga atab juda ko‘plab she’rlar yozgan. Biz bugun shoirning "Qish" she’rini o‘qishni o‘rganamiz.

O‘qituvchi "Bahor kelgach" she’rini ifodali qilib o‘qib beradi. She’rning mazmuni ustida ishlanadi.

KO‘KLAM – YASHNAYDI OLAM



Bahor kelgach

Tursunboy Adashboyev

Qish qorini supurdi,
Quyosh nurin ufurdi,
Yalpiz hidi gupurdi
Bahor kelgach.

Chaqmoq ko‘kda yong‘oq chaqdi,
Qizg‘aldoqlar selda oqdi,
Mayin shamol
Bizga yodqi
Bahor kelgach.

She’rni yod oling.

Savol;

- Bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
- Bahor fasli sizga nimasi bilan yoqadi?
- Chaqmoq ko‘kda yong‘oq chaqdi deganda nimani tushundingiz?
- Bahor kelgach qanday tabiat hodisalari bo‘lar ekan?
- O‘qituvchi ana shunday savol-javoblar vositasida o‘quvchilar bilan birga she’r mazmunini

tahlil qiladi. O'quvchilar savolga javob bera olmasalar, she'rning o'sha joyini o'qishni buyuradi.

Lug'at ishi:

Ufurmoq — Havo oqimi bilan atrofga taratmoq, dimoqqa urmoq.

Sel — Shiddatli, kuchli yog'in, suv oqimi.

IV. Darsni mustahkamlash:

Maqol: • Bahorda uxlagan qishda yig'laydi.

Topishmoqlar:

• Yerga tushsa loy qilar,
Dehqonlarni boy qilar
(Yomg'ir)

• Aytsalar oyim bizga,
Uyqu keladi ko'zga
(Alla)


Kelar-ketar, izi yo'q
Qaragani ko'zi yo'q.
Qiziq, yo'qolib qolar
(Shamol)

Tez aytish: • Bir tup tut tagida bir tup turp.

Bahor gullarining nomini ayting.



Rasmda nimalar tasvirlangan?



V. Darsda faol qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantirish.

VI. Uyga vazifa:She`rni yod olish.